


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining*

**MALAKA TALABI**

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;  
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti;  
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil “25” iyun dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”,  
“Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va  
mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka  
doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga  
muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r		bet
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>11</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>



## **1. Umumiy tavsifi**

61010100 – Turizm va mehmondo'stlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 61010100 – *Turizm va mehmondo'stlik* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Yakuniy Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish, turizm sohasi va turizm xizmatlarlarini tashkil etishda ishtirok etuvchi biznes subyektlar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, turizm mahsulotlari va ularni tashkil etishda yordamchi xizmatlarni ishlab chiqish, tashkil qilish, reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, turizm biznesi, mehmonxona subyektlarida xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish, xizmatlar bozorini segmentlash, turizm mahsulotining iste'molchilari xulq-atvorini o'rganish, turizm subyektlari faoliyatini boshqarish, raqobatbardoshlik holatini tahlil qilish, turizm va mehmondo'stlik tashkilotlari dasturini tuzish, turli mulkchilik shaklidagi turizm, mehmondo'stlik va xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga



yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

davlat va nodavlat turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi tashkilotlar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

xalqaro turizm va mehmondo‘stlik korporatsiyalari, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari;

mehmonxona komplekslari, sog‘lomlashtiruvchi maskanlari;

turizmning soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalari;

turizm va mehmondo‘stlik sohasida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi tadbirkorlik subyektlari;

turizm va mehmondo‘stlik sohasidagi xalqaro, zanjir, tarmoq va mahalliy firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi xizmat ko‘rsatish korxonalarini boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta‘minlash;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi bilan bog‘liq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish muassasalari.

*61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik* bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning kasb ta’limi yo‘nalishlari bundan mustasno.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.**

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*61010100 – Turizm va mehmondo‘stlik* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:



**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, huquqiy hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

rejalashtirish ishlarini tashkil etish;

xo‘jalik yurituvchi subyektining moliyaviy-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati bo‘yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o‘rganish;

ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarni texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo‘jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;

mehnatni muhofaza qilish me‘yor va qoidalariga amal qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha tashkilot va korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida xizmatlarni tashkil qilish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

turizm biznes subyektlari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini nazorat qilish;

xizmat ko‘rsatish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

turizm va mehmondo‘stlik sohalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo‘llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo‘linmalarini tashkil etish;

turizm va mehmondo‘stlik sohasi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarida xalqaro va mahalliy bozorlar uchun yangi mahsulot, yo‘nalishni tashkil etish;

turizm va mehmondo‘stlik tarmoqlarida xizmat ko‘rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

turizm va mehmondo‘stlik tarmoqlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;



qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish; tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish; loyihalar samaradorligini baholash; mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashkilot va korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish; tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar ko‘rsatkichlari o‘zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish; tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish; axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyot hamda turizmning dolzarb yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; turizm va mehmondo‘stlik sohasi tarmoqlaridagi tashkilot va korxonalar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; turizm va mehmondo‘stlik tarmog‘i korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish; turizm va xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalaridagi muammolar mavzulari bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish; internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish; ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish; tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish; biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish;

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida



foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda turistik korxonalar (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma’lumotlar bazasini yuritishni bilish;

strategik va operatsion rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

iqtisodiy o‘rnatish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta’minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

aktivlarni baholash, aylanma mablag‘larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo‘llay bilish;

loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

xizmat ko‘rsatish faoliyatiga taaluqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

buxgalteriya siyosati va turistik tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma’lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo‘lish;

biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

yangi tashkilotlarni (faoliyat yo‘nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### **3. Amaliyotiga qo‘yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – majburiy mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruv oldi amaliyoti o‘tkaziladi.

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4500</b>	<b>150</b>	
1.01	AM11210	Amaliy matematika	300	10	1,2
1.02	XT11210	Xorijiy til	300	10	1,2
1.03	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O‘RT1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	IN1106	Iqtisodiyot nazariyasi	180	6	1
1.06	FF1104	Falsafa	120	4	1
1.07	AKKK1104	Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	1
1.08	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09	MIK1204	Mikroiqtisodiyot	120	4	2
1.10	IAKT1205	Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	2
1.11	TNA1205	Turizm: nazariya va amaliyot	150	5	2
1.12	MTR1306	Mintaqaviy turizm resurslari	180	6	3
1.13	MRN1306	Mehmonxona va restoran menejmenti	180	6	3
1.14	MB1306	Mehmondo‘stlik industriyasi	180	6	3
1.15	MAK1306	Makroiqtisodiyot	180	6	3
1.16	GT1406	Gastronomik turizm	180	6	4
1.17	TI1606	Turizm iqtisodiyoti	180	6	6
1.18	TMI1506	Turizm va mehmondo‘stlikda innovatsiyalar	180	6	5
1.19	JIXIM1506	Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar	180	6	5
1.20	BH1506	Buxgalteriya hisobi va audit	180	6	5
<b><i>Turizm va mehmondo‘stlik bo‘yicha majburiy fanlar</i></b>					
1.21	TM1406	Turizm mahsuloti	180	6	4
1.22	TMR1506	Turizmda marketing	180	6	5
1.23	TSR1606	Turizm siyosati va rejalashtirish	180	6	6
1.24	TMIMM1706	Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida moliyaviy menejment	180	6	7



1.25	XTB1706	Xalqaro turizm bozori	180	6	7
1.26	TET1706	Turizmda elektron tijorat	180	6	7
Kvalifikatsiya		Iqtisodchi (turizm va mehmondo‘stlik faoliyati bo‘yicha)			
<b>Turizm va mehmondo‘stlik (sharq tillari bilan) bo‘yicha majburiy fanlar</b>					
1.21	XShMT1706	Xorijiy sharq mamlakatlarida turizm	180	6	7
1.22	XShT13-730	Xorijiy sharq tili	900	30	3-7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-7</b>
Kvalifikatsiya		Iqtisodchi (turizm va mehmondo‘stlik faoliyati bo‘yicha sharq tillari bilan)			
		<b>Jami</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
		<b>Malaka amaliyoti</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>			<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<b>Hammasi</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## **Bibliografik ma’lumotlar**

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so‘zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, sillabus, profil, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, bitiruv malakaviy ishi, yakuniy davlat attestatsiyasi, ta’lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko‘rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Rektor  M. Po‘latov ✓

202\_ yil “ ” \_\_\_\_\_



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  T. Teshabayev

202\_ yil “ ” \_\_\_\_\_



“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

1-prorektor  D. Nasimov

202\_ yil “ ” \_\_\_\_\_



Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Rektor  G. Rixsiyeva

202\_ yil “ ” \_\_\_\_\_





**KELISHILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya,  
atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim  
o‘zgarishi vazirligi huzuridagi  
Turizm qo‘mitasi

Direktor  M. Boltabaev

Rais o‘rinbosari  S. Niyazov



M.O.:

M.O.:

“Dinara tour service”  
turistik firmasi

“Bo‘stonsaroy” mehmonxonasi

Direktor  F. Muhammadjonov

Direktor  A. Hazratqulov



M.O.:

M.O.: